



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024-yil
yanvar-may



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-may)

Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi – **63,3 %**



Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi –
2 291,9
ming so'm




Xizmatlar
sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi – **70,5 %**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-iyun holatiga ko'ra)




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-may)




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va tashkilotlar (1-iyun holatiga ko'ra)




Soni, birlikda



Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-may)




Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-may)



■ Hajmi, mlrd. so'mda  O'sish sur'ati

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024-yil yanvar-may)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023-yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-may)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Surxondaryo viloyati ¹⁾	6 610,7	100,0	110,3
Termiz sh.	1 889,0	28,6	108,1
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	259,7	3,9	110,7
Angor	272,0	4,1	111,3
Boysun	205,2	3,1	112,0
Bandixon	147,1	2,2	111,3
Muzrabot	291,1	4,4	110,9
Denov	859,6	13,0	112,1
Jarqo'rg'on	374,3	5,7	112,2
Qumqo'rg'on	403,1	6,1	109,2
Qiziriq	239,0	3,6	110,1
Sariosiyo	389,5	5,9	109,3
Termiz	311,3	4,7	114,4
Uzun	269,7	4,1	109,3
Sherobod	352,2	5,3	111,6
Sho'rchi	347,9	5,3	112,8

¹ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-may)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-may)


Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Termiz sh	9 337,6	104,9 %
Termiz	3 662,7	111,1 %
Denov	2 040,3	109,3 %
Qiziriq	1 922,5	107,6 %
Muzrabot	1 891,5	108,6 %
Angor	1 886,3	108,6 %
Bandixon	1 768,7	108,3 %
Sariosiyo	1 704,5	106,7 %
Sherobod	1 667,0	109,2 %
Boysun	1 644,1	109,7 %
Qumqo'rg'on	1 573,9	106,6 %
Jarqo'rg'on	1 566,0	109,2 %
Sho'rchi	1 518,5	110,1 %
Uzun	1 432,4	106,7 %
Oltinsoy	1 345,0	108,0 %

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-may)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **63,3** foizni, shu jumladan, **17,4** foizini kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024-yil yanvar-may)




Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-may)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	6 610,7	100,0	110,3
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	373,3	5,6	116,1
Moliyaviy xizmatlar	1 528,6	23,1	106,1
Transport xizmatlari	971,5	14,7	112,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	844,2	12,8	109,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	238,6	3,6	110,0
Savdo xizmatlari	2 178,7	32,9	113,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	151,3	2,3	109,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	310,7	4,7	109,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	103,2	1,6	110,1
Ijara xizmatlari	130,0	2,0	108,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	170,2	2,6	109,1
Shaxsiy xizmatlar	216,4	3,3	110,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	77,0	1,2	80,8
Boshqa xizmatlar	161,2	2,4	108,0

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-may)




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024-yil yanvar-may, mlrd. so'mda)

Termiz sh	697,8
Denov	217,3
Qumqo'rg'on	123,9
Sariosiyo	94,4
Jarqo'rg'on	58,7
Sho'rchi	52,9
Sherobod	51,0
Uzun	41,2
Muzrabot	36,6
Termiz	31,9
Angor	30,8
Oltinsoy	27,4
Qiziriq	24,9
Boysun	23,9
Bandixon	15,9

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024-yil yanvar-may)

Yordamchi moliyaviy faoliyat



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-mayda 95,2** foizni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **45,6** foizni yoki **697,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yil yanvar-may oylariga nisbatan Boysun tumanida yuqori o'sish sur'ati **112,5** foizni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **86,9** foiz.

Termiz shahrida transport xizmatlari hajmi **174,7** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **113,3** foizni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾



Hududlar kesimida transport xizmatlari


(2024-yil yanvar-may)

Termiz sh	174,7	+13,3 %
Denov	107,7	+10,9 %
Jarqo'rg'on	79,9	+16,9 %
Termiz	73,0	+18,7 %
Sho'rchi	65,3	+31,8 %
Sariosiyo	58,8	+8,2 %
Qumqo'rg'on	57,5	+7,8 %
Sherobod	57,1	+9,0 %
Muzrabot	50,8	+14,0 %
Angor	46,9	+11,0 %
Uzun	45,1	+8,3 %
Qiziriq	44,3	+9,4 %
Oltinsoy	42,7	+10,1 %
Boysun	38,6	+9,7 %
Bandixon	29,1	+8,3 %

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-may) ¹⁾

2024-yilning yanvar-may oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **844,2** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **12,8 %** ni tashkil etdi.



Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi (%)
Termiz sh	154,8	+7,4 %
Denov	98,2	+8,2 %
Sariosiyo	55,9	+6,5 %
Sherobod	55,6	+10,1 %
Jarqo'rg'on	55,0	+9,6 %
Qumqo'rg'on	54,1	+7,8 %
Sho'rchi	48,9	+7,2 %
Angor	45,3	+9,7 %
Uzun	43,8	+9,1 %
Qiziriq	42,7	+10,0 %
Muzrabot.	42,0	+9,5 %
Termiz	41,3	+9,0 %
Oltinsoy	40,5	+8,2 %
Boysun	37,7	+9,8 %
Bandixon	28,4	+9,2 %

Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024-yil yanvar-may)



2024-yil yanvar-may oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **67,7** foizga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga to'g'ri keladi – **63,8 %**.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-may)

2024-yil yanvar-may oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining **82,5** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024-yil yanvar-may)



Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi %da
Termiz sh	422,1	+23,0 %
Denov	295,1	+13,9 %
Muzrabot	139,2	+9,7 %
Sherobod	136,2	+11,8 %
Sariosiyo	131,0	+8,6 %
Jarqo'rg'on	130,8	+11,9 %
Sho'rchi	127,5	+12,3 %
Qumqo'rg'on	121,7	+6,7 %
Angor	112,3	+11,9 %
Oltinsoy	111,5	+13,4 %
Qiziriq	105,0	+10,1 %
Uzun	103,6	+10,5 %
Termiz	102,4	+12,1 %
Boysun	76,4	+12,5 %
Bandixon	63,9	+12,6 %

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sishi %da


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-may)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar-may** oylaridagi ulushi **91,3 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024-yil yanvar-may)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda


O'sishi %da

OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2024-yil yanvar-may)

Muqobil to'plam ko'rsatkichlarining nomi	Hajmi, <i>mld. so'mda</i>	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
Jami	373,3	100,0
shu jumladan:		
AKT xizmatlari sektori	358,7	96,1
shu jumladan:		
Telekommunikatsiya xizmatlari	327,6	91,3
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	31,1	8,7
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	14,6	3,9
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	3,8	26,0
Kino-videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	0,8	5,5
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	0,6	4,1
Boshqa axborot xizmatlari	9,4	64,4

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-may)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024-yil yanvar-may** oylaridagi ulushi **60,4** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024-yil yanvar-may, mlrd. so'mda)

Termiz sh	145,6
Denov	61,8
Termiz	21,5
Sherobod	14,9
Sho'rchi	14,3
Jarqo'rg'on	8,9
Sariosiyo	7,4
Qumqo'rg'on	6,5
Uzun	6,1
Qiziriq	5,2
Angor	5,2
Oltinsoy	4,8
Boysun	4,1
Muzrabot	3,6
Bandixon	0,8

Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Termiz shahriga to'g'ri keladi. **2020-yilning yanvar-may** oylariga nisbatan mazkur hududda ushbu xizmat turi hajmi **61,9** mlrd. so'mga oshdi va ko'rib chiqilayotgan davr-da **145,6** mlrd. so'mga yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **46,9** foiziga yetdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024-yil yanvar-may** oylaridagi ulushi **47,3 %** ni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **37,2 %** ni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **15,5 %** ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-may)




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-may)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi
Termiz sh	56,6	+8,9 %
Denov	9,0	+13,3 %
Boysun	6,5	+9,1 %
Sherobod	6,1	+11,1 %
Termiz	4,7	+12,0 %
Jarqo'rg'on	4,2	+9,8 %
Qumqo'rg'on	3,3	+11,5 %
Sho'rchi	3,1	+12,4 %
Sariosiyo	1,9	+12,6 %
Uzun	1,7	+12,4 %
Angor	1,6	+12,2 %
Qiziriq	1,4	+11,6 %
Oltinsoy	1,3	+13,0 %
Muzrabot	1,2	+12,6 %
Bandixon	0,6	+14,6 %


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-may)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **95,9** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024-yil yanvar-may)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda


○ O'sishi

2024-yil yanvar-may oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **3,8 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **89,4 foiz**.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-may)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024-yil yanvar-may)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-may)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024-yil yanvar-may)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ✦ O'sishi

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-may)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **33,4** foizini tashkil etadi.


Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024-yil yanvar-may)

Termiz sh	28,2	+0,6 %
Denov	18,9	+9,1 %
Qumqo'rg'on	11,5	+9,5 %
Sariosiyo	11,4	+11,3 %
Jarqo'rg'on	11,2	+11,3 %
Sho'rchi	10,8	+12,1 %
Sherobod	10,8	+10,1 %
Angor	10,1	+11,2 %
Uzun	9,5	+10,1 %
Oltinsoy	9,4	+11,1 %
Muzrabot	8,7	+10,4 %
Qiziriq	8,2	+12,1 %
Termiz	7,6	+13,0 %
Boysun	7,5	+12,4 %
Bandixon	6,4	+12,9 %

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ◆ O'sishi

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-may)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-may, mlrd. so'mda)



2020-yilning yanvar-may oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **50,7** mlrd. so'mga oshib, **77,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **69,1** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 76-225-65-91